

Minavvar NURMATOVA,
Farg'onha vil. PYMO' MM o'qituvchisi
E-mail: munavvar83@umail.uz
Tel: (90) 562 83 29

FarPI katta o'qituvchisi, PhD B.J.Axmadaliev tagrizi asosida

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL BASIS OF USING NEW INFORMATION TECHNOLOGIES IN TEACHING PHYSICS

Annotation

In this article, the pedagogical and psychological basis of using new information technologies in the teaching of physics, as well as the issues of increasing students' interest in science, are covered.

Key word. Education, knowledge, skills, information technology, motivation

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НОВЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ ФИЗИКЕ

Аннотация

В данной статье освещены педагогические и психологические основы использования новых информационных технологий в преподавании физики, а также вопросы повышения интереса учащихся к науке.

Ключевое слово. Образование, знания, навыки, информационные технологии, мотивация

FIZIKA FANINI O'QITISHDA YANGI AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada fizika fanini o'qitishda yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik- psixologik asoslari xamda bu orqali o'quvchilarni fanga qiziqishlarini oshirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'z. O'qitish, bilim, malaka, ko'nikma, axborot texnologiyalari, motivatsiya

Kirish. Mamlakatimizda ijtimoiy taraqqiyotning demokratik – huquqiy, fuqarolik jamiyatini qurish yo'lidagi ishlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Barcha islohotlarining pirovard maqsadi, fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil qilib berishdan iboratdir. Aynan shuning uchun ham ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, eng muhim vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. Shu boisdan ilk qadamlardanoq milliy ta'lim-tarbiya tizimini jahon andozalari darajasiga chiqarish maqsad qilib qo'yildi. Bunday ulug'vor vazifalarni amalga oshirishni mamlakatdagi mavjud uzlucksiz ta'lim tizimini isloh qilmasdan ta'minlab bo'limas edi.

Mavzuga oid adabiyotlar taxlili. O'qitishning pedagogik- psixologik asoslari V.G.Razumovskiy, A.I.Bugaev, SH.A.Do'stmuhamedova, Z.T.Nishanova, D.A. Mavlyanova kabi olimlarning ishlari larida yoritilgan. Fizika o'qitish pedagogik jarayon bo'lib, o'quvchilar o'qituvchi raxbarligida fan asoslaridan sistemalashtirilgan bilimlarni amalda qo'llash bo'yicha maxorat va malakalarni oladilar, xozirgi zamon kundalik xayoti va texnikasida keng foydalaniladigan fizik asboblar bilan muomala qilish malakasini egallaydilar.

O'qitish – ikki tomonlama jarayon bo'lib u o'zida o'qituvchining faoliyatini (o'qitishni) va o'quvchilar faoliyatlarini (o'rganishni) mujassamlashtiradi. O'qitishning natijasi bo'lib, umumi politexnik ta'lim olish, o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakkantirish, ularni xayotga tayyorlash xisoblanadi. O'qituvchiga o'quv jarayonini to'g'ri ilmiy tashkil etish uchun faqat fizika asoslarini nazariyasidan va uni o'qitish metodikasidan yaxshi bilimlar zarur bo'libgina qolmasdan, balki o'qitish jarayoni va bilimlarning o'zlashtirishning umumiy psixologik qonuniyatlarini, malaka va ko'nikmalarini shakkantirishni, fikrashni o'stirishni xam bilishi zarur [1].

Demak, fizika o'qitishda mustahkam bilim, ko'nikma va malakalarni shakkantirish kabi maqsadlari bilan bir qatorda; tafakkur, qobiliyat, fanga qiziqish va boshqalarni rivojlanadirish, xususan, fizika fanidan bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchilar bilan ishlash usullarini shakkantirish va rivojlanadirish maxim masala xisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Xar qanday fanning asosida kishilarning olamni bevosita kuzatishi yotadi. Inson o'zini o'rabi turgan olam uzvlarini sezgi oraganlari yordamida xis qiladi, boshqalariga solishtiradi, farqi va o'xshash belgilarini aniqlaydi, so'ngra muayan xulosaga keladi. Demak, xar bir fan insonning olamni kuzatishi, bilishi jarayonida, uning natijasida paydo bo'ladi.

Bilish ko'p bosqichli jarayon bo'lib, xozirgi kunda emperik va nazariy bilish turlarigi ajratiladi. Emperik bilishga asoslangan bilish yo'nalishi emperizim sanaladi. Bu yo'nalishda bilishning yangona manbai sifatida jonli kuzatishni, sezgi a'zolari yordamida olingan bilimni, tajribani e'tirof etadi. Bunday bilim mazmuni tajriba bergen ma'lumotlarni tavsiflashni o'z ichiga oladi. Demak, emperik bosqichda jonli kuzatish yetakchilik qiladi. Ilmiy bilishning nazariy bosqichi rattsional jixatning ustivorligi bilan xarakterlanadi. Nazariy bilishning eng muxim vazifasi ob'ektiv xaqiqatga erishishdir. Buning uchun maxvumlashtirish, ideallashtirish, sintez, deduktsiya singari bilish vositasi va usullari keng qo'llaniladi. U tushunchalar nazariyalar, qonunlar va boshqa tafakkur shakkllari bilan ish ko'radi [2].

Tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak shaklidir. Tafakkur orqali biz sezgi a'zolarimiz bilan bevosita aks ettirib bo'lmaydigan narsa va hodisalarini ongimizda aks ettiramiz. Umuman olganda tashqi muhitdagi narsa va hodisalar o'rtasida ko'z bilan ko'rib, qulqoq bilan eshitib bo'lmaydigan ichki munosabatlar hamda qonuniyatlar mavjud. Ana shu ichki bog'lanish hamda qonuniyatlarini biz tafakkur orqali bilib olamiz. Demak, **tafakkur** deb narsa va hodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar va munosabatlarning ongimizda aks ettirilishiga aytildi. Aynan tafakkur orqali biz moddiy olamdag'i narsa va hodisalarining mohiyatini bilish imkoniga ega bo'lamiz. Shu bois dunyoni bilishda bevosita sezish, idrok, tasavvur va bavosita tafakkur muhim rol o'ynaydi [3].

Tafakkur jaryonlarining o'zi xam, bilish jarayonlarining o'zi xam mutasil xar xil savollar tug'ilishiga sabab bo'ladi. Odam qanchalik ko'p bilaversa, uning oldida noma'lum narsalar shu qadar ko'p savollar tug'diraveradi va uning o'zi shu qadar ko'p savol beraveradi. Bilishga qiziqish savollarni qo'yishda katta rol o'ynaydi.

Tafakkur jarayonlari xayratda qolish, tajublanish, qiziqish, bilishga intilish, yangilikni sezish singari emotsiyonal kechinmalar bilan bog'langan. Mana shu xislarning xammasi tafakkur jarayonlarini tug'diradi va rag'batlantiradi, bu jarayonlarning maroqli, zavqli qiladi va jonlantiradi.

Fiklash faoliyat paytida odamdagi emotsiyonal xolat yoki kayfiyat xam tafakkur jarayonlarida ancha axamiyatga ega. Xar qanday ijobjiy (quvonchli, yoqimli) kayfiyat odatda odamning fikrlash faoliyatini xam oshiradi. Odam noxush yomon kayfiyatda bo'lganda xam fikrlash jarayonlari xam pasayib ketadi [4].

Ta'limgarjarayonida o'quvchilarining bilishga qiziqishlari g'oyat katta rol o'ynaydi. Ma'lumki, qiziqish o'quvchilarining emotsiyonal bezagi, biror buyumni, biror faoliyatni tanlash munosabati va yo'nalihidir. Psixologiyada qiziqishning ikki turi o'quvchilarining ta'limgarjarayonida aniqlanadi. Birinchisi, bevosita qiziqish, ikkinchisi bilvosita qiziqish. Har bir o'qituvchi o'z o'quvchilarida faniga nisbatan bilvosita qiziqishni tarkib toptirishga harakat qiladi. Qiziqishlar orqali o'quvchilarida ta'limga faol munosabat namoyon bo'ladi.

Qiziqish - bu shaxsning o'zi uchun qimmatli yoki yoqimli bo'lgan muayyan narsa yoki hodisalarga munosabatidir. Qiziqishlar shaxsning muxim va individual xususiyatlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Taxlit va natijalar. Bilim olish muvaffaqiyatlari bo'lishi uchun o'quv faoliyatini quyidagi talablarga javob berishi lozim:

1. Motivatsiya, ya'ni o'qituvchi yaxshiroq o'qitishga, o'quvchi esa yaxshiroq o'qishga harakat qilishi kerak.
2. Ta'limgarning rivojlangan va egiluvchan tuzilishga egaligi.

3. Turli shakllarda amalga oshirilishi. O'qituvchiga o'z ijodiy pedagogik imkoniyatlarini to'liq amalga oshiradigan, o'quvchilariga bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirish uchun o'z individual imkoniyatlaridan foydalanish uchun turli shakllarda amalga oshiriladi.

4. Ta'limgarning zamonaviy texnik vositalar yordamida bajarilishi [5].

Ta'limgarning psixologik asoslari muammosi ko'pgina omilarga bogliq bo'ladi. Avvalo o'quvchining o'qishga bo'lgan munosabati masalasiga to'xtalaylik. Bu munosabat diqqatda, xis-tuyg'ularda, qiziqishlar va irodada, shuningdek, shaxsning tutgan yo'lida ko'rindi. Ta'limgarjarayoni avvalo o'quvchilar diqqatini jalb qilishni talab etadi. O'quvchilarida ixgiyorsiz diqqatini ko'rgazmali qurollardan, texnik va AKT vositalaridan foydalanish yuzaga keltiradi. Ta'limgarjarayonida o'qituvchining vazifasi darsda ishish holatini yuzaga keltishnigina emas, balki o'tiladigan materialini darsda o'quvchilar idrok etishga tayyor turishlarini kuzatish hamdir.

O'quvchilarining diqqati dars jarayonida o'zgarib turadi. O'qitish jarayonida bu qonuniyatlarni nazarda tutish va o'quvchilar diqqatini materialning asosiy jixatlariga qaratish kerak. Ta'limgarjarayonining samaradorligi o'qituvchi tomonidan beriladigan ko'rsatmalarga ham ko'p jixatdan bogliq. O'qituvchining roli shundan iboratki, u o'quvchilarga tegishli vaziyatni xosil qilishi, nimani vaqtincha, nimani umrbod esda olib qolishi kerakligini, nimani butunlay esda olib kolmasdan, faqat tushunib olish kifoya qilishini, nimani suzma-suz esda olib qolishni, nimaning ma'nosini o'z so'zlarini bilan aytib berish uchun esda olib qolish zarurligini takidlab o'tishi lozim.

Kuzatishlar ko'satadiki, o'quvchilar ko'pincha bunday ko'rsatmalar berilmaganda, noto'g'ri tasavvurlar yuzaga keladi. Ta'limgarning muvaffaqiyatliligini ta'minlovchi omillardan biri o'qitishning emotsiyalligidir. Ta'limgarjarayoni emotsiyonal jarayon. Agar berilayotgan axborot o'quvchilar qandaydir his-tuyg'u uyg'otmasa, uni o'quvchilar esda olib qolmaydilar.

Bugungi kun fizika o'qituvchisi oldida turgan dolzarb muammollardan bira ta'limgarning zamonaviy texnologiyalarini loyihalash va uni o'qitish amaliyotida qo'llashdir. Fizika o'qituvchisi o'quvchilarga fizika fanidan zaruriy bilimlarni beribgina qolmay, ularda fanga nisbatan qiziqish uyg'ota olishlari kerakki, natijada bu sohada yaxshi mutaxassis, yetuk kadrlar yetishib chiqishiga erishishdan iboratdir. O'qituvchi o'tgan har bir dars boshqa darsdan farq qilishi, bugungi o'tiladigan dars kechagisiga nisbatan mukammal bo'lishi kerak. Darsni

- yangi pedagogik texnologiyalar;
- axborot vositalaridan foydalanib;
- ko'rgazmali qurollari yordamida;
- interfaol metodlarni qo'llash orqali;

va h.k.lardan foydalanib tashkil etsak, bu dars o'quvchi ongiga yaxshi yetib boradi va xotirasidan joy oladi. O'quvchining ilmiy dunyoqarashi kengayib, bilim darajasi ortadi. An'anaviy ta'limgarning farqli zamonaviy ta'limga tashkil etishdan maqsad ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch surf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt ichida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarini hosil qilish, shuningdek o'quvchilar faoliyati, bilimini nazorat qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash fizika fani o'qituvchisidan katta pedagogik mahorat hamda ta'limgarjarayoniga yangicha yondashishni talab etadi [6]

Yangi yondoshuvlar orasida pedotsentrik konsepsiya alovida belgilanadi. Unda asosiy e'tibor o'qish, o'rganish – bolanlig faoliyatiga beriladi. Bu yondashuvning asosida J.Dyui tizimi, G.Kershenshteyner, V.Layning mehnat maktabi – XX asr boshlarida pedagogikada islohotlar davrining nazariyalari yotadi. Shuningdek, u progressiv, ya'ni faoliyat orqali o'qitish deb ham ataladi va amerikalik pedagog J.Dyui nomi bilan bog'lanadi. Uning ishlari g'arb ta'limga, ayniqsa amerika ta'limga juda katta ta'sir ko'rsatdi. J.Dyui o'qitish jarayonini ta'limga oluvchining ehtiyojlarini, qiziqishlari va qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda tashkil qilishni taklif etadi [7].

O'qitishning maqsadi o'quvchilarining umumiy va aqliy qobiliyatlarini, turli xil malakalarini rivojlantirish, ularni "mehnat, hayot maktabi"da o'qitishdan iborat bo'lishi zarur. Buning uchun ta'limga tayyor bilimlarni berish, yodlash va qayta takrorlash asosida emas, balki, o'quvchilarining spontan, mustaqil faoliyatida bilimlarni egallash, kashfiyot sifatida tashkil qilish kerak. Yuqoridaq jixatlar bilish faoliyatini faollashtiradi va tafakkurni, muammollarni yechish malakasini, qibiliyatlarning rivojlanishini ta'minlaydi.

Fizika fan sifatida o'tilgan vaqtidan boshlab fanning ma'lumotlar bazasi yuqori tezlikda yil sayin boyib, ko'payib katta hajm ortib bormoqda. Shu sababdan fizikani o'tish jarayonida faqat kerakli mavzularni tanlab olish va o'quvchining o'zlashtirish qobiliyatlarini etiborga olib etkazish lozim. Ta'limgarjarayonida mul'timedia, elektron o'quv adabiyotlar, virtual laboratoriya ishlari, har hil animatsion dasturlar, slaydlar yaratishda kerak bo'ladi maxsus dasturlar yaratilgan bolib, ushbu dasturlar yordamida tayyor modellar mavjud, ulardan foydalanuvchi boshlang'ich parametrlarni kiritib bir necha xil ishlarni (laboratoriya, namaoish tajribalari, taqdimotlar, animatsiyalar) amalga oshirishlari mumkin.

Axborot texnologiyalarining imkoniyatidan foydalangan holda komp'yuter modellarini o'quv jarayonlarida foydalanish ma'lumotlarni taqdim etishda yuqori samara beradi. Fizik jarayonlarni komp'yuterda modellashtirish uchun axborot texnologiyalarida fizik bilimlardan keng foydalilanadi. Shuningdek, modellashtirishning muxim jixati shundaki, turli xil asboblar

tayyorlash shart emas, hodisalarni jonli va tabiiy ko‘rinishda tasvirlash, tajribani oz fursat ichida istalgan paytda takrorlash, kuzatish qiyin bo‘lgan va umuman kuzatilishi mumkin bo‘lmasdan jarayonlarni ham namoyish eta olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Xulosa va takliflar. Komp'yuter dasturini qo‘llash orqali o‘tilgan mashg‘ulotlar oddiy mashg‘ulotlardan ko‘ra yaxshiroq samara beradi. Fizika fanini o‘qitishda komp'yuter dasturlaridan foydalangan holda, animatsiyali mashg‘ulotlar olib borish o‘qituvchi va o‘qituvchiga qulaylik yaratib, fizik jarayonlarning yuz berish mexanizmlari va bosqichlarini tushunib yetishda yaxshi samara beradi. Fizik jarayonlar mexanizmlarini, ularni ma’ruza, amaliy va ayniqsa tajriba mashg‘ulotlarida namoyish etish va bu holatlarni komp'yuter texnologiyalariga tayangan holda olib borish o‘qitish jarayonida o‘quvchilarga bilim berish va fan asoslariga doir bilimlarni hosil qilishni oshiruvchi omillari bo‘lib hisoblanadi. Fizika fanini o‘qitish jarayonida zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarini ma’lumotlarni idrok etishga olib keladi, mavzuni o‘rganishga qiziqishni uyg‘otadi, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini yaxshilaydi.

ADABIYOTLAR

1. V.G.Razumovskiy, A.I.Bugaev va boshqalar O‘rtta maktabda Fizika fani o‘qitish metodikasi asoslari Toshkent O‘qituvchi 1990 y 194-195 b
2. Abdulxamid Nurmonov “Linvistik tadqiqot metodolgiyasi va metodilari” O‘quv qo‘llanma. Toshkent Akademnashr 2010 6-13 bet
3. F.I.Xaydarov N.I.Xalilova umumiyligi psixologiya (darslik) bakalavriat yo‘nalishi: 5140800-pedagogika va psixologiya talabalari uchun darslik Toshkent -2009 191 bet.
4. P.I. Ivanova, M.E.Zufarova. Umumiyligi psixologiya.O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashryoti.Toshkent 2014 y 206-214 b
5. SH.A.Do‘stmuhamedova, Z.T.Nishanova, va boshqalar Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. Toshkent 2003. 202B 215 B
6. D.A. Mavlyanova Fizika fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarning o‘rnini 5th -Icarhse international conference on advance research in humanities, applied sciences and education hosted from new york, usa <https://conferencea.org> august 28th 2022.13-14 b
7. Sh.S.Shoyimova, M.K.Xoshimova va bosh.Ta’lim texnologiyalari. Darslik. Toshkent-2020. 46 B